

## BOLALARDA PSIXIK RIVOJLANISHNI KORREKSIYA VA KOMPENSATSIYA O'RNI

*Andijan Davlat Pedagogika Instituti*

*Maktabgacha ta'lim fakulteti*

*Oligofrenapedagogika yo'nalishi 101-guruh talabasi*

***Ikromova Mohiniso Mirzohidjon qizi.***

***ANATATSIYA;*** Ushbu maqolada korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari, korreksiya tushunchasi, anomal bolalarga ta'lim-tarbiya berish, psixik xususiyatlar, korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi, korreksion pedagogika fanining fan sifatida vujudga kelishi, korreksion pedagogikaning asosiy sohalari, korreksion o'qitish, kompensatsiya haqida so'z borgan.

***KALIT SOZLAR;*** korreksiya, korreksion pedagogika, korreksion tushuncha, defektologiya, rivojlanish, psixika, kompensatsiya.

Korreksiya" tushunchasi (yunoncha "correction"-tuzatish) korreksion pedagogika pedagogik uslub va tadbirlar yordamida anomal bolalarga ta'lim berish va ularning kamchiliklarini tuzatish, aqliy rivojlantirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Anomol bola qanday bo'ladi? Anomol so'zining manosi? Ruhiiy va jismoniy kamchiliklari mavjud bo'lgan bolalar anomal bolalar deb yuritiladi. Anomal so'zi yunoncha anomalos so'zidan olingan bo'lib odatdan tashqari, noraso degan ma'nolarni bildiradi. Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi anomal bolalarning ta'lim olishiga zarur shart-sharoitlarni o'rganib chiqish va ularning kamchiliklarini iloji boricha tuzatish, bartaraf etish yoki sezilmaydigan holga keltirish usullarini tarbiyachilarga va o'qituvchilarga yoritib berishdan iborat. Korreksion pedagogikaning vazifasi anomaliyaning kelib chiqish sabablarini, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarini o'rganib chiqqan holda integratsiyalashgan, inklyuziv yoki differensial ta'limni tashkil qilish va ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish hisoblanadi.

Korreksion pedagogikaning fan sifatida vujudga kelishi. Korreksion pedagogika boshqa fanlarga nisbatan yangi fan sanaladi. Bu fan asosan 19-asrning o'rtalarida rivojlana boshladi. Bu fanning rivojlanishida buyuk psixolog professor L.S.Vigotskiyning hizmatlari katta hisoblanadi. 1925-yil Maskva shahrida Eksperimental defektalogiya instituti tashkil etildi. Bu institutni L.S.Vigotskiy boshqargan. L.S.Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi hususiyatlarni o'rganib chiqqan va nuqsonlarning murakkab tuzilishi haqida ham ta'limot ishlab chiqqan. U "Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'lim olib borish kerakligini, korreksiya va kompensatsiya usullarini o'rganib chiqdi va bularni amalga oshirishning usullarini yoritib berdi. L.S.Vigotskiy anomal bolalarning "salbiy", "ijobiy" tomonlarini o'rganib chiqib ta'lim tarbiyani bolaning patensial qobiliyatini inobatga olgan holda tashkil qilish zarurligini uqtirdi. U defektalogiya sohasida katta nazariy meros qoldirgan va shu bilan birga defektalogiya fanining asoschisi hisoblanadi. O'zbekistonda korreksion pedagogikaning rivojlanishi 1967-yildan boshlab keskin o'sib bordi. Sabab shu yili Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Pedagogika va Psixalogiya fakultetining qoshida oligafrenopedagogika bo'limi yaratildi. Bu bo'limga 1976-yil surdopedagogika bo'limi ham qo'shiladi. Mustaqil defektalogiya bo'limida 1984-yildan boshlab bir niche bo'limlarda ta'lim berila boshlanadi. Korreksion pedagogikaning asosiy sohalari: Surdopedagogika (lotincha surdus- kar gung so'zidan olingan) - eshitishida nuqsoni bor bolalarning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; Tiflopedagogika (yunoncha tiflos - so'qir, ko'r so'zidan olingan) - ko'zi ojiz bolalarning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; Oligafrenalogiya (yunoncha oligos -kam, fren-aql)so'zidan olingan, aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;Logopediya (yunoncha logos \_so'z, padeo- tarbiya so'zlaridan olingan)- og'ir nutq nuqsonlarini o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llarini o'rganuvchi fan.Surdopedagogika. Eshitish nuqsonlarining kelib chiqishi tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin. Kar soqov bolalarning 25-30 foizida eshitish nuqsoni tug'ma hisoblanadi. Bu holat onaning homiladorligi davrida turli xil kasalliklar bilan

kasallanishi va genetik faktorlar bilan bog'liq bo'ladi. Eshitishdagi orttitlagn nuqsonlar baxtsiz hodislar tufayli kelib chiqishi ham mumkin. Bolaning ilk yoshida meninggit, otit, poratit(tepki), qizamiq, qizilcha, meningoensefalit, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar soqovlik yoki turli darajada zaif eshitishga olib kelishu mumkin. Kar-soqov bolalar ta'lim olishlari uchun ulaga maxsus alifbolar yaratilgan va bunday nuqsoni bor bolalar bilan surdopedagoglar shug'ullanadilar. Tiflopedagogika. 1784-yil Parijda ko'rlar uchun maxsus muassasa ochilgan. Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirma bo'ladi. Tug'ma sabablar orasida irsiy kasalliklar kata ahamiyatga ega. Orttilgan turi esa tasodifan yuzaga kelgan kasalliklar yoki halokatlar natijasi bo'lishi mumkin. Ko'zi ojizlar uchun ham alohida alifbo yaratilgan bo'lib ularga maxsus bilimga ega bo'lgan tiflopedagoglar ta'lim beradilar. Lagapediya. Lagpediya korreksion pedagogika(defektalogiya)ning muhim sohalaridan biri sanalib bolaning so'zlashidagi nuqsonlarni iloji boricha bartaraf etish va oldini olish bilan shug'illanadi. Nutqiy buzilishning kelib chiquvchi sabablari orasida ekzagen(tashqi) va endagen(ichki) omillar asosiy ro'l o'ynaydi. Bunday nuqsoni bor bolalar ematsional barqaror emaslar, kayfiyati tez o'zgaradi, sejahl, agressiv va ko'p bezovta bo'ladilar. Nutqdagi nuqsonlarni lagapedlar maxsus massajlar bilan bartaraf qilishadi.Oligofrenologiya. Butun dunyo sog'liqni saqlash tashkilotlarining ma'limotlariga ko'ra butun aholining 3 foizini aqli zaiflar tashkil qiladi. Bu foiz son jihatdan 10.000 dan ortiq kishini o'z ichiga qamrab oladi. Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ichida ham eng ko'p foizini aqli zaiflar tashkil qiladi. Chunki aqli zaiflikni keltrib chiqaruvchi sabablar juda ko'p. Aqliy zaiflikni belgilashda klinik, psixalagik va pedagogik mezonlarga bo'linadi. Oligafreniya 3darjada namoyon bo'ladi: debil, imbetsil, idiotiya. Debillik- aql pastlik oligafreniyaning eng yengil darajasi bo'lib, bunday bolalarni tashqi ko'rinishidan nuqsoni borligini bilib bo'lmaydi. Imbetsil va idiotiya bolalar ta'lim olish qurbiga ega bo'lmaydilar. Ular ijtimoiy ta'minot vazirligi qoshidagi bolalar internatlarida tarbiyalanadilar. Idion bolalar hattoki o'zining ota-onalarini ham taniy olmaydilar. Ular o'z- o'ziga hizmat qila olmaydilar, o'zgalar yordamiga

muhtoj bo'ladilar. Imbetsil bolalar idiot bolalarga qaraganda nisbatan tuzukroq rivojlangan bo'lsa ham mustaqil hayot kechira olmaydilar. Ijtimoiy taminot vazirligi qoshidagi muassasalarda ularga sodda bilimlar, mehnatning ayrim sodda turlari o'rgatiladi.

Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha defectus nuqson, kamchilik, logos fan, talimot) rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi. Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman etirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan. Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi: Pedagogik lug'atda «korreksiya» tushunchasi (yunoncha «correctio» - tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki toliq) sifatida tushunilishi takidlab o'tiladi. Ana shu lug'atda «korreksion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va oqitish metodlariga muhtoj bolgan, sogligi imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini organuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat ortasidagi nomuvofiqlikni yoqotish yoki kamaytirishdan iborat. Korreksion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

1. Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga

yonaltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun talim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko‘rish qobiliyatini yo‘qotish vaqti alohida ahamiyatga ega. Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko‘ra ko‘proq darajada o‘qitishga bog‘liq. Shuning uchun anomal bolalar o‘qitilmasa yoki o‘qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar etkaziladi, psixik funktsiyalarning shakllanishi orqada qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar ota jiddiy bolsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat talimi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda oquvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funktsiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

2. Anomal bolalarni tarbiyalash - korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bolib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va talim muassasasi ortasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qollab-quvvatlash, bir-biriga yordam korsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, oziga xizmat korsatish, mehnat konikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash konikmalarini shakllantirishga yonaltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bolishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning ornini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

3. Korrektsiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yoqotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

4. Korrektsion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga kora umumiy pedagogik tasir korsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korrektsiontarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korrektsion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korrektsion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- differentsatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora- tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Kompensatsiya — nogironligi bo'lgan shaxsga yoki uning qonuniy vakiliga pul shaklida to'lanadigan, nogironligi bo'lgan shaxs tomonidan o'z mablag'lari hisobiga sotib olingan nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturida nazarda tutilgan rehabilitatsiya texnik vositasi yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini qoplash. Nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturi-organizmning izdan chiqqan yoki yo'qolgan funktsiyalarini, shuningdek nogironning mehnat faoliyati

muayyan turlarini bajarishga bo'lgan qobiliyatlarini tiklashga, ularni kompensatsiya qilishga qaratilgan tibbiy, kasbiy va boshqa reabilitatsiya chora-tadbirlarni o'z ichiga oladigan nogiron uchun maqbul bo'lgan reabilitatsiya chora-tadbirlari kompleksi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Korrektsion-pedagogik faoliyat yaxlit talim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim. Diagnostika korrektsion, korrektsion-rivojlantiruvchi, korrektsion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korrektsion-oqitish, psixokorrektsion faoliyatni ham amalga oshirilishini taminlaydi. Korrektsion-pedagogik faoliyat maxsus talim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

#### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» 1997.
2. Barkamol avlod orzusi. T., 1998.
3. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2005.
4. Po'latova P. Maxsus pedagogika. T., 2014.
5. "Logopediya" M.Y. Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
6. V.S. Raxmonova. Defektologiya va logopediya asoslari. T.
7. Raxmonova V.S. Korrektsion pedagogika va logopediya. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -  
T: " IQTISOD MOLIYA "
8. P.M. Po'latova "Maxsus pedagogika" (oligofrenopedagogika).